

2020-yil 1-may holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

2016-2020 yillar 1-may holatiga ko'ra

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

28 091
114,3 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

27 281
115,2 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)

1 982
72,7 %

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 28 091 tani tashkil etib, ulardan 27 281 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 519 taga yoki 14,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida 1 982 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,3 % kamaygan.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

15 380



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

659



Oilaviy korxonona

164



Unitar korxonona

7 139



Xususiy korxonona

29




Aksiyadorlik jamiyati

415




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat



xususiy korxonona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.



Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-may holatiga ko'ra 23 059 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6 849 ta, oilaviy korxonalar – 636 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15 032 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 26 ta, unitar korxonalar – 148 ta va boshqalar – 368 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-aprel oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yil yanvar-aprel oylarida 1 982 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,3% kamaygan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 360 ta, xususiy korxonalar – 427 ta, oilaviy korxonalar – 128 ta, muassasalar – 22 ta va boshqalar – 45 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi


(1-may holatiga ko'ra)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 5 637 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 112,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 129,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 155,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 91,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 038 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 112,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 51,1 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 127,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 146,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 41,2 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2020-yil 1-may holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 7 658 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,1 % ga oshdi. Jami savdo korxonalarini va tashkilotlarini soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 121,0 % ga (jami savdodagi ulushi 65,9 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 137,6 % ga (jami savdodagi ulushi 25,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 136,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,6 %) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

522



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

20



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



56
Yashash bo'yicha xizmatlar




1 151
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-may holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 207 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 118,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 95,4 %), yashash bo'yicha xizmatlar– 127,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 4,6 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 392 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,4 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, televideniya dasturlari ishlab chiqish, ovoz yozish va musiqa asoslarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 109,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 6,1 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 126,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,7 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 110,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,8 %), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 80,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,0 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 112,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,4 %), aloqa xizmatlari – 123,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 35,0 %) o'sishidir.


Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17-son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.

IT-PARK maqsadi:

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;

-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startup-loyihalarni" har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

Oilaviy korxonalar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 659 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 240 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 636 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 223 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 128 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga yoki 30,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 15 380 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 894 taga yoki 123,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 032 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 799 taga yoki 122,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 360 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 452 taga yoki 24,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 248 tani tashkil etib, ulardan 241 tasi yoki 97,2 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 76 taga yoki 44,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 20 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(1-may holatiga ko'ra, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni**
(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	84	93	108	165	241
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	2	2	16	28
Sanoat	65	65	81	104	134
Qurilish				2	12
Savdo	8	9	10	16	30
Tashish va saqlash		1	1	1	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	2	1	6	8
Axborot va aloqa				2	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	4	4	7	9
Boshqa turlar	6	10	9	11	18


**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1-may holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan
jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	8 083	8 966	9 833	12 233	15 032
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	668	745	824	984	1 183
Sanoat	1 824	2 184	2 617	3 347	3 798
Qurilish	846	862	941	1 056	1 443
Savdo	2 350	2 690	2 773	3 696	4 983
Tashish va saqlash	425	492	595	710	823
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	302	332	373	492	623
Axborot va aloqa	137	156	163	185	223
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	135	167	187	239	269
Boshqa turlar	1 396	1 338	1 360	1 524	1 687

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	198	280	413	636
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	26	26	38	52
Sanoat	95	133	204	287
Qurilish	2	2	2	3
Savdo	26	38	59	131
Tashish va saqlash	2		1	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26	46	67	97
Axborot va aloqa	3	5	5	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	5	8
Boshqa turlar	16	26	32	50


**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	51	39	12
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	11	8	3
<i>Qirg'iz Respublikasi</i>	10	9	1
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	9	7	5


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 616 ta), Chust (2 221 ta), Namangan (1 943 ta), Uychi (1 746 ta) va To'raqo'rg'on (1 685 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (1 351 ta), Norin (1 282 ta) hamda Mingbuloq (1 184 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Xorijiy korxonalar	Qo'shma korxonalar
Namangan viloyati	241	86	155
Namangan shahri	77	28	49
Mingbuloq	6	4	2
Kosonsoy	23	5	18
Namangan	12		12
Norin	11	4	7
Pop	23	7	16
To'raqo'rg'on	19	9	10
Uychi	18	3	15
Uchqo'rg'on	6	4	2
Chortoq	17	6	11
Chust	18	10	8
Yangiqo'rg'on	11	6	5

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-may holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Namangan shahri (35,6 %), Chust (8,2 %), Namangan (7,1 %), Uychi (6,4 %), Pop (6,1 %), Kosonsoy (6,0 %), To'raqo'rg'on (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chortoq (5,2 %), Yangiqo'rg'on (4,9 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,3 %) tumanglar hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)


2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (21,2 %), Pop (12,1 %), Namangan (8,6 %), To'raqo'rg'on (7,9 %), Uychi (7,3 %), Norin (7,3 %), Uchqo'rg'on (6,9 %), Chust (6,8 %), Chortoq (6,0 %), Mingbuloq (5,9 %), Kosonsoy (5,2 %), Yangiqo'rg'on (4,8 %), tumanglari ulushiga ega.




**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni**
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 103 ta (jami ulushi 40,7 %), Uychi 1 023 ta (6,8 %), Namangan 1 011 ta (6,7 %), Pop 927 ta (6,2 %), Chortoq 902 ta (6,0 %), Kosonsoy 854 ta (5,7 %), Chust 798 ta (5,3 %) va Yangiqo'rg'on tumani 781 ta (5,2 %) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kamlari Mingbuloq 511 ta (3,4 %), Uchqo'rg'on 697 ta (4,6 %), To'raqo'rg'on 711 ta (4,7 %), Norin 714 ta (4,7 %), tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlik

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.05.2019-yil	01.05.2020-yil
Namangan viloyati	714 341	19 463	23 059
Namangan shahri	164 981	7 543	8 405
Mingbuloq	30 153	745	941
Kosonsoy	47 784	1 184	1 378
Namangan	46 157	1 418	1 710
Norin	43 530	768	1 028
Pop	56 517	1 013	1 342
To'raqo'rg'on	59 919	1 166	1 416
Uychi	58 155	1 213	1 475
Uchqo'rg'on	42 866	1 013	1 248
Chortoq	45 126	952	1 155
Chust	61 215	1 604	1 894
Yangiqo'rg'on	57 938	844	1 067

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2020-yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



2020-yil yanvar-aprel oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Namangan (47 ta), To'raqo'rg'on (23 ta), Namangan shahri (16 ta), tumanglari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Kosonsoy (2 ta), Chust (3 ta), Mingbuloq (3 ta) tumanglari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:71 230-84-96**